

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

6
2021
(noyabr-dekabr)

www.pubedu.uz



<https://t.me/xalqtalimijn>



XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

6
(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Muloqot madaniyati o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligining asosiy omili



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- | | | |
|----------------|----|---|
| R. Djurayev | 6 | Mustaqil O'zbekistonda ma'nnaviy-axloqiy g'oyalarning rivoji |
| M. Inoyatova | 11 | O'quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish |
| F. Karimova | 16 | Pedagogning axborot muhitida rivojlantirish muammolari va axborot kompetenligi mazmuni |
| H. Begimqulov | 20 | Innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligin rivojlantirish mazmuni |
| M. Umaraliyeva | 25 | Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o'qituvchi kompetensiyasi |
| U. Mahkamov | 29 | Talabalarda mustaqil ta'lim jarayonida kreativ fikrash malakalarini shakllantirish |
| D. Mahkamov | | |
| M. Madiyarova | | |



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- | | | |
|-----------------|----|---|
| J. Xusanov | 33 | Geometriya fanidan uslubiy ishlamalar tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi |
| N. Shamsiddinov | 36 | Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari |
| B. Quvonov | 41 | Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish yo'llari |
| R. Safarova | 44 | Boshlang'ich sınıf o'quvchilarida mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkurni shakllantirish xususiyatlarini o'rganish |
| M. Xaydarova | 49 | O'rta tibbiy ta'limga kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi |
| K. Karimova | 52 | Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usul va texnologiyalari |
| N. Akbarova | 57 | Xorijiy til o'qituvchilarida deontologiya va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asosları |
| L. Namazbayeva | 61 | Talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari |
| D. Kenjaboyeva | | |
| B. Karimov | | |



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- | | | |
|---------------|----|--|
| N. Karimova | 64 | Professional ta'limga kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini baholash mezonlari |
| F. Abdullayev | 68 | Tabiiy fan (science) bo'yicha boshlang'ich sınıf o'quvchilarini baholash yondashuvlari |



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- | | | |
|----------------|----|--|
| F. Berdibekova | 75 | Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sınıf o'qituvchilariga "Tarbiya" darsini tashkil etishni o'rgatish texnologiyasi |
|----------------|----|--|

Z. Boymurodova	80	Oilada bolalarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni
M. Mahmudov	84	Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantrish
Sh. Abduraxmanov	89	Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari
Z. Raximov	93	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarining samarali imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

H. Safoyev	97	Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni
------------	----	--



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

F. To'rabekov	101	"Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" fani bo'yicha multimediali elektron darslik yaratish metodikasi
S. Ruzmetova	104	Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalarning o'rni
A. Tolametov	108	Umumta'lif maktablarda jismoniy tarbiya fanida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari



PSIXOLOGIYA

Z. Yulchiyeva	112	O'qitishning didaktik vositalari va ularning ijtimoiy-pedagogik, psixologik ahamiyati
---------------	-----	---



INKLYUZIV TA'LIM

O. Musurmanova, G. Solihova	115	Nogiron bolalarni ijtimoyilashtirishning huquqiy-nazariy asoslari
K.Todjibayeva	119	Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limi amaliyotga joriy etish: muammo va yechimlar
S. Mamatova	123	Innovatsion yondashuv asosida umumiyl o'rta ta'lif muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish



MAKTABGACHA TA'LIM

N. Abdullayeva	126	Maktabgacha ta'limga klasterli yondashuv tatbiq etish orqa li ta'lif sifati samaradorligini oshirish
----------------	-----	--



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Муслимов	130	Педагогические условия формирования графической компетентности у будущих учителей технологии
-------------	-----	--



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

M. Atoeva	133	Значение физического эксперимента в обучении физике и методика его организации на уроках
-----------	-----	--



ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

I. Sheraliyev	139	Doprizivnaya подготовка молодежи в процессе школьного физического воспитания
---------------	-----	--

Husen SAFOYEV,
Buxoro davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti mustaqil izlanuvchisi

TALABALARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MAZMUNI

Annotatsiya

Maqlolada Vatanparvarlik tushunchasi harbiy vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi – ularda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti, xalqi taqdirlari uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakkantirish bo'yicha ustuvor vazifalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Talaba-yoshlar, harbiy vatanparvarlik, Vatanparvarlik ta'lif, tarbiya, tarixiy tajribalar, konstitutsiya, milliy armiya, mardlik, botirlilik, jonkuyarlik.

В статье понятие патриотизма тесно связано с военным патриотизмом, целью воспитания молодежи в военно-патриотическом духе является проявление активности в различных сферах жизни общества, особенно в видах государственной службы, связанных с военной сферой. В то же время были проанализированы приоритетные задачи по формированию таких важных качеств, как верность Конституции и воинскому долгу в мирных и военных условиях, высокая ответственность и ответственность за судьбу своей страны и народа.

Ключевые слова. Студенческая молодежь, военный патриотизм, патриотическое воспитание, воспитание, исторический опыт, Конституция, национальная армия, храбрость, хакерство, бодрость.

In the article the concept of patriotism is closely related to military patriotism, the purpose of educating young people in the military-patriotic spirit is to show activity in various branches of society, especially in the types of civil service associated with the military sphere. At the same time, priority tasks on the formation of such important features as loyalty to the Constitution and military duty in the peaceful and military conditions, high responsibility and responsibility for the fate of their country and people were analyzed.

Key words. Student-youth, military patriotism, patriotic education, upbringing, historical experiences, constitution, national army, bravery, hacking, vivacity.

Ma'lumki, Vatan, uning himoyasi, vatanparvarlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir", deb belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, oliy ta'lif muassasalarida talabalariga ushbu haqiqatni muntazam tushuntirishimiz, ta'kidlashimiz, shu tariqa Vatanga sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usini ularning ongi va qalbida mustahkam qaror toptirish lozim.

Vatan hissi – bu o'z ona yurti, xalqini sevish, hurmat qilish, qadriga yetish demakdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deb ta'kidlagan.

Oliy ta'lif muassasalarida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish talab etiladi:

- talaba-yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga o'zining ona yurti himoyasi sharafla va muqaddas burch ekanligini chuqr singdirish;

- xalqimizning milliy madaniyati, qadriyatları, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

- yoshlarda O'zbekiston Respublikasi Milliy armiyasining qudrati, kuchi va salohiyatiga bo'lgan ishonch hissini kuchaytirish;

- yoshlarni milliy armiyamiz sha'ni va g'ururini himoya qilishga o'rgatish;

yoshlar ongiga vatanimizni turli yot oqimlar, g'oyalalar, terroristik tashkilotlar xurujidan himoya qilish zarurligini uqtirish, buning uchun juda katta jonbozlik ko'rsatish, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

yoshlarda mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilish, chegaradosh mamlakatlar va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini shakllantirish;

yoshlarda murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-teknika va axborot kommunikatsion vositalardan samarali foydalanish malakasini qaror toptirish.

- 2002-yil 12-dekabrdagi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash" nomli 2-bobi 12-moddasida chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash va bunda quyidagi larni amalga oshirish belgilab berilgan.

Jumladan:

- chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik;
- chaqiriluvchilarning harbiy-teknika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorgarligi;
- oliy harbiy ta'lif muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik;
- jismoniy tayyorgarlik, davolash-sog'lomlashtirish ishlari;
- umumta'lif tayyorgarligi;
- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlikruhidat tarbiyalashda yuqorida ta'kidlanganidek, ularni avvalambor, oliy harbiy ta'lif muassasalariga qamrab olish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy savyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PQ-3898-son qarori 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi" tasdiqlandi.

Konsepsianing asosiy maqsadi mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega,

iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimizning beba ho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu konsepsiya bir qator vazifalar ham belgilab berilgan, ularni o'z vaqtida tizimli tarzda hal etish zarur. Buning uchun oliy ta'lif muassasalarida yo'l xaritalari ishlab chiqilishi, unda bu sohadagi barcha muammolar va ularni hal etish yo'llari, usullari ko'rsatilish lozim.

Yuqorida ta'kidlanganidek, talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ushbu konsepsiyasining ahamiyati muhimdir. Konsepsiya mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'naliishlari va tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lif-tarbiya institutlarining bu boradagi o'rni va ahamiyati, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy me'yorlarni hisobga olgan holda belgilab berilgan. Konsepsiya yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga ma'nani va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lif-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu Konsepsiyaning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi yoshlarida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malaka, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdag'i "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3907-son qarori 1-ilovasi bilan "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqilgan.

Ushbu dasturda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bosqichlari, amalga oshirish yo'llari, usullari belgilab berilgan.

• Eng asosiysi, oliy ta'lif muassasalarida talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning ma'naviy merosi, xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan qadriyatlar muhim o'r'in tutadi. Ularni har tomonlama o'rganib, tahlil qilib, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda unumli foydalanish zarur.

Jumladan:

ajdodlar ma'naviy merosi va xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan qadriyatlarning mazmun-mohiyatini zamonaviy pedagogik va AKT vositalari yordamida talabalar ongi va qalbiga yetkazish;

mardlik, botirlik, jonkuyarlik va jasorat kabi insoniy sifatlar ulug'langan asarlarni targ'ib qilish maqsadida talaba-yoshlar orasida kitobxonlik kechalarini tashkil etish;

"Bu buyuk Vatan barchamizni", "Vatanparvarlik – buyuk fazilat" "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni" kabi mavzularda ko'rik-tanlovlar uyushtirish;

"Buyuk ma'rifatparvarlar vatanparvarlik haqida", "Ajodolar merosi – avlodlar tarbiyasida", "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiya – davr talabi", "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va oila" mavzularida referatlar tayyorlash;

"Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mahalla-ta'lismuassasasi va oila hamkorligi" rukni ostida muntazam ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

"Vatanimiz O'zbekiston", "Vatanparvarlik tarbiyasi", "Vatanga muhabbat tuyg'usi", "Men nechun sevaman, O'zbekistonni?" mavzularida badiiy kechalar, bahs-munozalar o'tkazish;

II jahon urushi va Afg'onistonda bo'lib o'tgan jangu-jadallarda ishtirot etgan urush qatnashchilari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari uyushtirish.

Yuqorida tashkil etilishi sanab o'tilgan turli ko'rik-tanlovlar va tadbirlar g'oliblarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish zarur. Ularni rag'batlantirishda shaffoflik, haqqoniylig tamoyillariga amal qilish kerak.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T., O'zbekiston, 1992-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. <https://aza.uz/oz/documents/o'zbekiston-respublikasi-oliv-ta'lim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>
3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. –488-b.
4. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori. (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy basasi, 23.02.2018-y., 09/18/140/0816-son)

1

Obuna indeksi - 904

6/2021

XALQ TAVIMI

0006 2181 0008



9 7721 81 803823